

**ASINXRON NAZORAT USULLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA
MAGISTRLIK DISSERTATSIYALARINI NAZORAT QILISHNI
OPTIMALLASHTIRISH**

Abdullaev Eldor Sa'dulla o'g'li

Tashkent davlat transport universiteti assistenti

E-mail: eldorabdullayev@list.ru, eldorabdullayev0223@gmail.com

Telefon: +998 998678794

Annotatsiya. Ushbu maqola magistratura talabalari ilmiy ishlarini amalga oshirilishini nazorat qilishni asinxron tarzda tashkil etishga qaratilgan. Hamda hozirgi kunda magistrlik dissertatsiyalarining monitoringini olib borilishi va asinxron tarzda tashkil etilishi natijasida qanday yutuqlarga erishish mumkinligi kabi savollarga asosli javoblar berishga qaratilgan. Shuningdek, asinxron ko'rishda nazorat usullarini tashkil etishning metodlari va nazorat platformasini qurish bo'yicha strukturaviy natijalar berilgan.

Kalit so'zlar: asinxron ta'lim, sinxron ta'lim usullari, magistrlik dissertatsiyalari monitoringi, asinxron monitoring.

KIRISH. Hozirgi kunda OTM muassasalarida magistratura bosqichi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 2-martdagi 36-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Magistratura to'g'risidagi nizom", O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son farmon va qarorlari asosida o'z faoliyatini olib boradi [1-3].

Ushbu qonun hujjatlariga asosan Magistratura talabasining o'quv-metodik, ilmiy-tadqiqot, pedagogik ishlari, amaliyot, stajirovkani o'tashi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash bo'yicha faoliyati ushbu magistratura to'g'risidagi nizom asosidagi magistratura talabasining kalendar ish rejasiga binoan amalga oshiriladi.

Magistratura talabasining kalendar ish rejasi mazmuni ilmiy rahbar bilan birgalikda ishlab chiqiladi va oliy ta'lim muassasasining o'quv ishlari bo'yicha prorektori (direktor o'rinbosari) tomonidan tasdiqlanadi. Magistratura talabasi o'zining kalendar ish rejasi bajarilishi bo'yicha har oyda kafedra yig'ilishida hisobot beradi.

Har o'quv semestri yakunida tegishli fakultet o'quv-metodik kengashi yig'ilishida (magistratura bo'limida) kafedra mudiri magistratura talabasining kalendar ish rejasi bajarilishi yuzasidan hisobot beradi [8]. Bu esa t'limni amalga oshirishning sixron usullaridan bo'lib, ta'lim jarayonini tashkil etishdagi eng mashhur va ananaviy usullardan hisoblanadi. Ammo hozirgi kunda ta'lim jarayonini tashkil etishda bir qancha usullardan keng foydalanilib ulardan eng mashxurlari asinxron va yuqorida keltirib o'tilgan sinxron usul hisoblanadi.

METODLAR. Asinxron o'qitishda masofaviy ta'lim platformalari yordamida talabalarga oldindan yozib olingan ma'ruzalar, o'rganish materiallari va topshiriqlar bilan ta'minlanadi, o'rganuvchilar(talabalar) ulardan o'zining o'zlashtirish tezligi va o'zlari uchun qulay vaqt va sharoitda foydalanishlari mumkin, bu esa o'rganuvchilarga ancha qulayliklar yaratib ularga o'zlarining bo'sh vaqtlari asosidagi o'qish grafigini yaratish imkonini beradi [9]. Bu odatda to'liq bandlik asosida ishlaydigan yoki belgilangan vaqtda darslarga borishga to'sqinlik qiladigan boshqa majburiyatlarga ega bo'lganlar uchun idealdir.

Xuddi shu kabi sinxron ta'lim turi ham o'zining quyidagi alohida farqlanish faktorlariga ega bo'lib ular quyidagilardan tashkil topadi. Sinxron ta'limda asinxron ta'limdagi kabi masofaviy ta'lim platformalaridan foydangan holda yoki foydalanmagan holda ham o'qitish real vaqt rejimida o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi jonli o'zaro aloqani o'z ichiga oladi[7, 9]. Ushbu ta'lim usulida o'rganuvchilar belgilangan vaqtlarda virtual darslarda, munozaralarda qatnashadilar va xuddi haqiqiy o'qitish xonalarida bo'lgandek shug'ullanadilar [4-5].

Bu usullar esa ba'zi holatlarda o'rganuvchilar uchun turli noqulayliklarni keltirib chiqarishi ham mumkin. Masalan, ba'zi holatlarda talabalar dars jarayonlarini tashkil etilishida sinxron usullarni tanlasalar topshiriqlarni topshirish jarayonlarida esa asinxron usullardan foydalanishni o'zlari uchun samaraliroq usul deb biladilar. Xuddi shuningdek, ushbu magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalar ham odatda arslarda ananaviy qatnashishini tanlasalar ham, magistrlik dissertatsiyalarini nazoratini doimiy ravishda ananaviy bo'lmagan usullardan foydalangan holda yo'qqa qo'yilishini maq'ul ko'radilar.

TAHLILLAR O'TKAZISH. Shu bilan birga, yuqorida qayd etilgan monitoring ishlari hozirgi kunda an'anaviy yuzma-yuz ko'rinishda doimiy ravishda tashkil etib boriladi va quyidagi ishlar ketma-ketligida amalga oshiriladi.

1. Magistratura bosqichida talabalikka o'qishga qabul qilingan magistrant magistratura to'g'risidagi nizom asosida ilmiy rahbar tayinlanadi. Ushbu jarayondan so'ng magistrant ilmiy rahbari bilan birgalikda magistrlik dissertatsiyasi uchun o'zi tanlagan mavzu asosida ishlar ketma-ketligi(magistratura talabasining kalendar ish rejasi)ni belgilab oladi.

2. Hamda tayyorlangan kalendar ish reja kafedra muhokamasidan o'tkaziladi va kafedra yig'ilishidan muvoffaqiyatli o'tgan kalendar ish rejalar magistratura rahbariyatiga texnik va orfografik tekshiruvlar uchun taqdim etiladi.

3. Kamchiliklardan holi bo'lgan kalendar ish rejalar OTM o'quv ishlari prorektori tomonidan talabaning yo'l haritasi sifatida tasdiqlanadi.

4. Ushbu jarayonlardan o'tgandan so'ng magistrant va uning ilmiy rahbari doimiy aloqada bo'lgan holda magistrlik dissertatsiyasini amalga oshiradilar.

Tasdiqlangan kalendar rejalar quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi

1. Magistrantning yaqin 2 yil uchun amalga oshiradigan ilmiy-pedagogik faoliyati.

2. Magistrantning yaqin 2 yil uchun amalga oshiradigan ilmiy tadqiqotlari to'g'risidagi ma'lumotlar.

Ikkinchi punktda ko'zda tutilgan ilmiy tadqiqot ishlari magistrantning doimiy nazoratda bo'lishini ta'minlovchi asosiy punkt hisoblanadi. Chunki, talabaning ilmiy tadqiqotlari bir necha qismlardan iborat bo'lib, ularning bajarilish muddati yuqorida qayd etilgan magistratura talabasining kalendar ish rejasida aks etiriladi(1-jadval).

1-jadval. Magistratura talabalari kalendar ish rejasining ilmiy tadqiqotlar bo'limining namunaviy ko'rinishi

Ilmiy tadqiqot ishlari

T/r	Tadbirlar nomi	Bajarish muddati	Natijalar: bajarilishi bo'yicha belgilar
1.			
2.			


Magistratura to'g'risidagi nizomga asosan yuqorida qayd etib o'tilganidek, magistratura talabalari har oyda bir marotaba kafedra yig'ilishida va har semester yakunida fakultet kesimida doimiy nazoratdan o'tkaziladilar. Shuningdek, har o'quv yili yakuni bo'yicha esa OTM huzurida oraliq va yakuniy attestatsiya jarayonlarida qatnashadilar va talabalarning magistrlik dissertatsiyalari o'zlarining kalendar ish rejalariga asosida amalga oshirilayotganligi yuzasidan hisobotlar berib boradilar. Ushbu jarayonlarda qatnashgan va doimiy ravishda o'z ustida ishlagan magistrantlar keyingi bosqichi uchun yoki magistrlik dissertatsiyasi himoyasi uchun yo'llanmaga ega bo'ladilar.

Ammo shuni ham qayd etib o'tish lozimki, bazi bir talaba va ilmiy rahbarlar tomonidan o'z vazifasiga nisbatan sovuqqonlik bilan qarashlari, yoki o'zlari tomonlaridan ishlab chiqilgan kalendar ish rejalariga rioya etmaslik, yoki belgilangan muddatlarda belgilangan vazifalarning bajarilmasligiga holatlari doimiy ravishda yuz berish mumkin bo'lgan holatlar sirasiga kiradi. Shuningdek, yana bir ish jarayonidagi kamchiliklar qatoriga talabalar va ularning ilmiy rahbarlari o'rtasida doimiy uzluksiz

aloqani ta'minlash imkoniyati mavjud emasligini ham keltirish mumkin. masalan ushbu sababga ilmiy rahbarning turli dars mashg'otlari bilan band bo'lish ehtimolliklari hisobiga kelib chiqishini yoki talabalarning dars mash'gulotlari bilan band bo'lish sabablarini ham keltirib o'tish mumkin. Bu esa hozirgi axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivoj topgan vaqtda ushbu masalaga jiddiy yondoshish va yangi texnologiyalarni qo'llash orqali vaziyatdagi muammolarni bartaraf etish zarurligini anglatadi.

NATIJARLAR. Shuningdek hozirgi vaqtda ta'lim jarayonlarini amalga oshirish uchun bir qancha online yoki offline ta'lim platformalari mavjud bo'lib ular asosan ta'lim jarayonini amalga oshirish uchun xizmat qilmoqda. Ammo magistrlar va ularning ilmiy ishlarini nazorat qilish yoki boshqa ilmiy daraja uchun amalga oshirilayotgan dissertatsiyalarning belgilangan vaqtda amalga oshirilishini nazorat qilish uchun dasturiy ta'minotlar mavjud emas. Bugungi kunda masofaviy ta'lim jarayonlari rivojlanib borayotganligi va yuzma-yuz uchrashuvlar kamayayotganligini hisobga olsak, bunday platformalarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa talabalar va ularning ilmiy rahbarlarini bir vaqtda uchrashish va ilmiy ishlarini amalga oshirilish jarayonlarini muhokama qilish, shuningdek, ularning ilmiy ishlarini turli ko'rinishlardagi yig'ilishlar tashkil etgan holda muhokamalardan o'tkazish kabi jarayonlardan halos etadi. Bu esa kam vaqt sarflagan holda ko'plab ta'labalarning ilmiy ishlarini o'z vaqtida bajarilishini samarali tashkil etish imkoniyatini yaratadi [6-8,10-11].

Shuningdek, ushbu ishlarni doimiy ravishda asinxron tarzda ishlash imkoniyatini yaratish va foydalanuvchilar uchun qulay bo'lgan vaqt va sharoitda ishlashlarini ta'minlash maqsadida masofaviy ta'lim platformasini quyidagi struktra asosida tashkil etish maqsadga muvofiq ekanligini anglatadi.



1-rasm. Asinxron nazorat platformasini qurish strukturasi

Ushbu strukturaga asosan qurilgan tizimlar foydalanuvchilarga bir qancha qulayliklarni yaratib beradi.

1. Foydalanuvchi talaba o'zi uchun qulay sharoit, vaqt va joyda o'ziga yuklatilgan vazifaning ijrosini o'zining tegishli rahbariga yuborish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2. O'z navbatida tizimdan foydalanuvchi rahbar o'qituvchi o'ziga tegishli talaba yoki talabalar tomonidan yuborilgan ishlarni tekshirishi yoki ularga zaruriy ko'rsatmalarni platformaning maxsus xabarnoma qismi orqali yuboeish mumkin bo'ladi.

3. Shu bilan birga kafedra mudiri yoki ta'lim shakli uchun mas'ul shaxslar tomonidan ixtiyoriy vaqt sharoitida ularning ilmiy ishlanmalari o'zlari tomonlaridan ishlab chiqilgan ilmiy ishni bajarish grafigiga mos yoki mos bo'lmagan tarzda amalga oshirilayotganligi monitoringini o'tkazish imkoniyati paydo bo'ladi.

XULOSA. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda sinxron tarzda ta'lim jarayonlarini tashkil etish samarali hisoblansada, vazifalarning bajarilishi monitoringini o'tkazishda ushbu usul ancha samarasiz hisoblanmoqda. Chunki, turli sabablarga ko'ra bir qancha vaqt davomida nazoratning susayishi yoki bo'lmasligi ishlarga bo'lgan munosabatning susayishiga olib kelishi mumkin. shu sababli asinxron tarzda vazifalar nazoratini o'rnatish belgilangan vazifalarga bo'lgan munosabatlarni doimiy ravishda faollik bilan olib borilishini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Shu sababli ta'lim jarayonini tashkil etishda vazifalar monitoringini asinxron ko'rinishda tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3151-son qarori.
3. <https://lex.uz/uz/>
4. Turdiyev, O. A., A. B. Tukhtakhodjaev, and E. S. Abdullaev. "The model of network bandwidth when servicing multi-service traffic." *Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers* 15.3 (2019): 70-74.
5. Abdullaev E.S, Zakirov V.M, Shukurov F.D "Technical methods of organizing a distance learning system". *Scientific and Technical Journal of NamIET* Volume 7, Issue 1, 2022 y, - ps 241-246.
6. А.А. Артюхов. [Некоторые аспекты теории и практики организации «дистанционного обучения» при изучении географии в основной школе // Международный научно-исследовательский журнал. — 2021. — Т. Выпуск 5. — С. 51. — ISSN 2303-9868. — doi:10.23670/IRJ.2021.107.5.111.](#)

7. Вахид Закиров, Элдор Абдуллаев *Bir kanalli sinxron tizimlarning oshkora yo‘qotish va kutish usullarida xizmat ko‘rsatish sifat samaradorligini aniqlash // АВРИИТТ-2021. 2022. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bir-kanalli-sinxron-tizimlarning-oshkora-yo-qotish-va-kutish-usullarida-xizmat-ko-rsatish-sifat-samaradorligini-aniqlash> (дата обращения: 10.03.2023).*
8. [«Термины и определения дистанционного обучения», Лаборатория дистанционного обучения Российской Академии Образования](#) (недоступная ссылка). Дата обращения: 17 января 2012. [Архивировано](#) 8 сентября 2012 года.
9. [Abdullaev E.S, Kutbidinov O.M, Rasilmukhamedov M.M, Khakimov Sh.Kh The importance of developing a system for receiving electronic orders for the center of information technologies // Scientific and Technical Journal of NamIET Volume 6, Issue 3, 2021 y, - ps 232-238.](#)
10. Теория и практика дистанционного обучения: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учебн. заведений / Е. С. Полат, М. Ю. Бухаркина, М. В. Моисеева; Под ред. Е. С. Полат // М.: Издательский центр «Академия», 2004. — 416 с.- стр. 17
11. Богдановский, В. К. "Разработка информационно-аналитической системы обучения сетевому конфигурированию." *Актуальные проблемы авиации и космонавтики* 2 (2019).